



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MAHMUD SHABISTARIY VA UILYAM BLEYK ASARLARIDA OTA VA ONA OBRAZLARINING G' OYAVIYLIK XUSUSIYATLARI

Mannonova Feruzabonu Sherali qizi,
katta o'qituvchi, Ingliz tili 3-fakulteti,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
E-mail: feruzamannonova@gamil.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15183515>

Annotatsiya. Ushbu maqola Mahmud Shabistariy va Uilyam Bleyk poeziyasidagi asosiy shaxs obrazlaridan biri hisoblangan “ota – ona” obrazlarining asosiy xususiyatlari va misollarni o'z ichiga oladi. Ushbu ilmiy maqolaning obyekti sifatida “Gulshani Roz” va “Ma'sumlik va Tajriba qo'shiqlari” asarlari olingan. Ushbu asarlardagi shaxs obrazlari ramziy obrazlarga yaqinligi va realistik obrazlarning tarkibiy qismi sifatida ham ba'zi asarlarda namoyon bo'lishi mumkin. Biroq, aynan ushbu asarda shaxs obrazlar kategoriya sifatida alohida bosqichga olib chiqilgan. Maqolada “ota” va “ona” obrazining adabiyotning ikki bir biriga yaqin dunyosi- Sharqa tasavvufi va G'arb romantizmida ma'naviy – axloiy jihatlari muhokama qilinadi.

Tayanch so'zlar: obraz, ramziylik, allegoriya, ilohiy nur, ilohiy haqiqat, poetik uslub.

Shaxs obrazlari tasavvufda Allohning mohiyatini, sifatlarini, va insonni o'zi bilan bog'langan komil inson g'oyasini anglatadi. Bu obrazlar shuningdek, **payg'ambarlar** va **ilohiy nurlar** sifatida tasvirlanadi. Mahmud Shabistariy bu obrazlarni Allohning maxsus rahm-shafqatiga, nuriga yoki muqaddas mavjudotlariga aloqador qiladi. “**Gulshani Roz**” asarida shaxslar obrazi **tarixiy-realistik obrazlar** shaklida tasvirlanmagan, chunki asar asosan **tasavvufiy** va **ma'naviy** mavzularni o'rgatadi. Mahmud Shabistariy asarida tarixiy voqealar va shaxslar haqida to'g'ridan-to'g'ri tasvirlar yoki realistik obrazlar keltirilmagan. Biroq, asarda **simvolik** va **allegorik** obrazlar orqali tarixiy shaxslar va voqealar ramziy ma'nolarda aks ettirilishi mumkin [2]. Bu obraz ramziylik va tasavvufiy ta'limotlarning qamroviga kiradi. 1-savol javob o'zlikni anglash haqida

From proper arrangement of known concepts

The unknown proposition becomes known.

The major premiss is a father, the minor a mother,

And the conclusion a son, O, brother[4]

tarjimasi

Ma'lum tushunchalarning to'g'ri joylashuvi orqali

Noma'lum mulohaza ma'lum bo'ladi.

Katta mulohaza — ota,

Kichik mulohaza — ona,



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Xulosa esa — o'g'il,

Ey birodar!

She'riy parcha silogistik (mantiqiy) tuzilishga asoslangan bo'lsa ham, tasavvufiy kontekstda bu obrazlar shunchaki mantiqiy tushunchalar emas, balki chuqur ramziy ma'noga ega. Ota – katta mulohaza (major premise) sifatida tasvirlanadi. Tasavvufda “ota” aql, ilohiy ma'rifat, haqiqat manbai yoki ilohiy nur sifatida tushunilishi mumkin. Ota — har qanday haqiqatning boshlang'ich nuqtasi bo'lib, u bilish jarayonini boshlaydi. Bu obraz ilohiy haqiqatni anglatib, Xudoning ilmiy qudrati yoki ilohiy ma'rifat ramzi bo'lishi mumkin. Ikkinchi obraz Ona kichik mulohaza (minor premise) sifatida tasvirlanadi. Tasavvufda "ona" moddiy olam, ruhiy tajriba, muhabbat, yoki ilohiy ilhomning qabul qilinishi sifatida talqin qilinishi mumkin [3]. Agar ota aql va nurni ifodalasa, ona uning hayotga va qalbgga singishi, haqiqatning tajribaga aylanishi bilan bog'liq. Bu tasavvur Islom falsafasidagi “Aql va Ruh”, “Ma'rifat va Tajriba”, “Erkak va Ayol” tamoyillari bilan bog'liq [1].

Nafsiy istak (havas) o'z ishini bajarayotganida,

Biri ota bo'ladi, boshqasi esa ona.

Lekin sizdan talab etiladi –

Men aytmayman ota va onangiz kimligini,

Ularga hurmat bilan munosabatda bo'ling [4].

15- savol javobdan olingan yuqoridagi parchada ota va ona konseptining eng birlamchi tushunchasi ramzi ostida ota va ona insonning dunyoga kelishiga sabab bo'luvchi biologik kuchlar tasvirlangan bo'lsada, Shabistariy tasavvufiy tilda gapirayotgani sababli, ota va ona falsafiy tushunchalar sifatida ham talqin qilinishi mumkin. Ota – Aql, Ruhiiy Kuch yoki Ilohiy Nurlar; Ona – Materiya, Jismoniy Olami yoki Qabul Qilish. Bu she'r insonning hayotga kelishi, jismoniy va ruhiy hayoti, va ota-onaga hurmat haqida. Ota va ona oddiygina biologik tushunchalar emas, balki ruhiy va falsafiy manbalardir. Nafs (lust) bu dunyoviy hayotda insonni harakatga keltiradigan kuch, lekin u mutlaqo yomon emas – uni to'g'ri anglab, boshqarish lozim. Ota va onani hurmat qilish, o'z ma'naviy ildizlaringni hurmat qilish degan ma'noda ham tushunilishi mumkin.

Tadqiqotimizning ikkinchi obyektini hisoblangan Uilyam Bleyk poeziyasi o'zining shaxs obrazlarining ramziyligi uning poetik uslubining markaziy elementidir. Biroq shaxslar obrazi “Gulshani Roz”ga qaraganda sezilarli darajada kam bo'lsada, “Ma'sumlik va Tajriba qo'shiqlari” ma'naviy- falsafiy jihatdan qolishmaydi. Ma'sumiyat va tajriba o'rtasidagi qarama-qarshilik, shaxsiyatning ruhiy sayohatlari va ilohiy haqiqatni anglash jarayoni ramzlar orqali ifodalangan. Shaxsiyat



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

o'z ichki dunyosidagi kurashlar va o'zgarishlar orqali, Bleyk tasvirlagan ramziy obrazlar yordamida, yuksaladi va ilohiy haqiqatga erishishga intiladi.

Uilyam Bleyk poeziyasida ham shu shakldagi obraz turi ota va ona ko'zga tashlanadi. She'rlarda ota obrazi turli ma'nolarda kelgani xolda, alohida shaxs sifatida ham namoyon bo'ladi.

*Father, father where are you going
O, do not walk so fast.
Speak, father, speak to your little boy,
Or else I shall be lost [7].*

Tarjima:

*Ota, ota, qayerga ketayapsiz?
Oh, bunchalik tez yurmang.
Gapiring, ota, kichik o'g'lingizga,
Aks holda men adashib qolaman.*

Bu to'rtlik Uilyam Blake'ning "The Little Boy Lost" she'ridan olingan bo'lib, ota obrazi turli ramziy ma'nolarni anglatuvchi timsol sifatida namoyon bo'ladi. She'rdan bola otasiga murojaat qilib, undan uzoqlashmaslikni, unga gapirishni iltimos qiladi, aks holda o'zini yo'qotishi mumkinligini aytadi. Blake'ning bu to'rtligida ota obrazi ko'p qirrali va chuqur ramziy ma'noga ega. U Xudo, dunyoviy ota yoki jamiyatning yetakchilari sifatida talqin qilinishi mumkin. She'rdan bolalikning zaifligi va yo'l-yo'riqqa ehtiyoji kuchli aks ettirilgan. Ota obrazining jim va beparvo bo'lishi esa inson hayotidagi adashish, ma'naviy yo'qotish va yo'l-boshchiga bo'lgan ehtiyoj mavzularini chuqurlashtiradi.

"Ota" obrazi "Ma'sumlik va Tajriba qo'shiqlari" to'plamida eng ko'p qollanilgan brazlardan biri sifatida, boshqa ma'nolarda hma qo'llanilgan tabiiydir.

*My mother groan'd, my father wept,
Into the dangerous world I leapt;
Helpless, naked, piping loud,
Like a fiend hid in a cloud [7].*

tarjimasi

*Onam nola qildi, otam yig'ladi,
Xavfli dunyoga otilib tushdim;
Yordamga muhtoj, yalang'och, baland chinqirib,
Xuddi bulut ichiga yashiringan jin kabi.*

Uilyam Blakening "Infant Sorrow" she'rida ota obrazi zaiflik, qayg'u va inson hayotining mashaqqatlarini anglatadigan ramziy timsol sifatida namoyon bo'ladi.



XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR NAZARIYANING AMALIYOTGA TATBIQI

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

Quyida ushbu obrazni chuqurroq tahlil qilamiz. Misradagi “My father wept” (Otam yig‘ladi) iborasi odatda bolalik tug‘ilishi bilan bog‘liq quvonchli kayfiyatdan farqli ravishda, chuqur qayg‘uni ifodalaydi. Bu, asosan, ota-ona uchun farzand dunyoga kelishi nafaqat baxt, balki katta mas‘uliyat ham ekanligini ko‘rsatadi. “Ota” bu yerda:

- Oilaviy va moddiy mas‘uliyatni his qilayotgan insonni;
- Bolaning kelajagi haqidagi xavotirni;
- Hayotdagi tashvishlar oldida o‘zini ojiz his qilayotgan odamni ifodalaydi.

Blake jamiyatning muayyan tabaqalari, ayniqsa, ishchilar va kambag‘al oilalar uchun farzand dunyoga kelishi og‘ir yuk bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatishi mumkin [6]. Bu she‘r va undagi ota obrazi hayotning nohaqliklari, insonning azoblari va otalikning murakkab tomonlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Shabistariy va Uilyam Bleyk poeziyasida uchraydigan ota -ona obrazlari asarda har bir misraga ramziylik aspektini olib kiradi. Shabistariy va Bleyk asarlarida shaxsning konsepsiyasi ramziy talqin etilgan bo‘lib, ularning asarlarida inson ruhi va uning ilohiy haqiqatga bo‘lgan intilishi markaziy o‘rinda turadi. Shabistariy uchun shaxs – ruhan poklanish orqali ilohiy haqiqatga yetishuvchi salik (yo‘l bosuvchi). Bleyk uchun shaxs – qarama-qarshiliklar ichida yashovchi, erkinlik va haqiqatni izlovchi ijodiy mavjudot. Ikkala shoir ham insonni chegaralangan jismoniy mavjudot emas, balki chuqur ramziy va ma‘naviy ma‘noga ega ruhiy mavjudot sifatida tasvirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andrey Lukashev. Ijodiy meros. Monoteizm falsafasi. Mahmud Shabistariy; Zamonaviy dunyoda islom. 2017 yil 13-jild. 4-raqam.
2. Badiiy adabiyot timsollari va tasavvuf timsollari. Toshkent. 2010.
3. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va She‘riyat. G‘afur G‘ulom. 1991.
4. Mahmud Shabistariy. “Gulshani Roz”. Unitilgan kitoblar. 1880.
5. N. Komilov. Tasavvuf. Movaraunnahr. 2009. 24- bet
6. S. Erle. Qum zarralari dunyolarini ko‘rish: Bleyk va anglash. 2022.
7. Uilyam Bleyk. “Ma‘sumlik va Tajriba qo‘shiqlari”. London. Picadelliy. 1866.